ASHTARXONIYLAR DAVRIDA SUV MASALASINING AYRIM TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI

Berdiyev Xayriddin Abdulloyevich
t.f.f.d. (PhD)., dotsent Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universitet O‘zbekiston tarixi kafedrasi
20berdiev20@gmail.com

Abdullayeva Durdona Xayriddin qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitet
Neft va gazi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida yer-suv munosabatlari, irrigatsiya tizimi va soliq siyosati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Yer egaligi shakllari, suvdan foydalanish tartibi va irrigatsiyadagi tanazzul omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ashtarxoniylar, Buxoro xonligi, yer-suv munosabatlari, irrigatsiya, suyurg‘ol, vaqf, xiroj, tarixiy manbalar.

Аннотация: В статье на основе исторических источников анализируются земельно-водные отношения, ирригационная система и налоговая политика в Бухарском ханстве в период Аштарханидского ханства. Особое внимание уделяется формам землевладения, моделям водопользования и факторам упадка ирригации.

Ключевые слова: Аштарханиды, Бухарское ханство, земельно-водные отношения, ирригация, суюргал, вакф, хирадж, исторические источники.

Abstract: Based on historical sources, this article analyzes land and water relations, the irrigation system, and tax policy in the Bukharan Khanate during the Ashtarkhanid period. Particular attention is paid to forms of land ownership, models of water usage, and the factors contributing to the decline of irrigation.

Keywords: Ashtarkhanids, Bukharan Khanate, land and water relations, irrigation, suyurghal, waqf, khiraj, historical sources.

Ashtarxoniylar sulolasi (1601–1756) hukmronligi davri Buxoro xonligida yer egaligi va suvdan foydalanish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu haqda fikr yuritgan A. Zamonovning ta’kid etishicha Ashtarxoniylar davrida qishloq xo‘jaligi Buxoro xonligi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining katta qismi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Zarafshon va Qashqadaryo

DOI: 10.5281/zenodo.24240538

vohalari, shuningdek, Amudaryo havzasiga tutash sug‘oriladigan hududlarda dehqonchilik xo‘jaliklari faoliyat yuritgan. Ushbu tarmoqning rivojlanishi, avvalo, yer va suv resurslaridan foydalanish tartibi hamda yer egaligi munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq edi[1].

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida avvalgi asrlardan davom etib kelgan davlat, xususiy va vaqf yerlariga egalik qilish shakllari saqlanib qoldi. A. Saidovning dissertatsiyasida yer-suv munosabatlari avvalgi Shayboniylar davridan meros bo‘lib qolgan shakllar asosida rivojlandi, biroq ayni paytda soliq tizimining og‘irlashuvi, yer mulklarining notekis taqsimlanishi va irrigatsiya inshootlariga yetarli e’tibor berilmasligi kabi muammolar yoritiladi, ammo Imomqulixon davrida irrigatsiya tarmog‘i kengaygan, ayrim hududlarda yangi kanallar qazilganligi haqidagi dalillarga chetda qolib ketgan [2].

M.A. Abduraimov kitobida esa, davlat yerlari amlok-i podshohiy deb yuritilib, ular ustidan boshqaruv moliya idoralari – devon orqali amalga oshirilganligi hamda ushbu yerlardan olinadigan daromadlar davlat xazinasiga yo‘naltirilgan, deb ko‘rsatib o‘tiladi. Dehqonlar bo‘lsa o‘sha davr tamoyillariga muvoviq davlat yerlaridan foydalanib, yetishtirilgan hosilning belgilangan qismini xiroj yoki boshqa tegishli majburiyatlar shaklida to‘laganlar. Xususiy yerlar mulk deb atalib, ularni sotish, meros qoldirish va vaqf mulkiga aylantirish kabi huquqiy imkoniyatlar mavjud bo‘lgan. Vaqf yerlari esa masjid, madrasa, maqbara va boshqa diniy hamda xayriya muassasalarining faoliyatini moddiy jihatdan ta’minlashga xizmat qilgan [3].

Endi Ashtarxoniylar davridagi yer egaligi shakllari, suv resurslaridan foydalanish tartibi va bu sohadagi davlat siyosatining asosiy jihatlari tahlil qiladigan bo‘lsak, u holda ko‘pgina manbalarda Buxoro xonligida yer egaligining uchta asosiy shakli: “mulki sultoniy” (davlat yerlari), “xususiy mulk” (mulki xaraj) va “vaqf yerlari” bo‘lib Ashtarxoniylar davrida ham saqlanib qolgan [4]. Buxoro xonligi iqtisodiyoti sug‘orma dehqonchilikka asoslangan edi, shu bois suv resurslaridan foydalanish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanardi. A. Saidovning qayd etishicha Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo havzasi va Amudaryo bo‘ylarida sug‘orma dehqonchilik rivojlangan bo‘lib, sug‘oriladigan yerlarda bug‘doy, arpa, jo‘xori, sholi, paxta va turli sabzavot-poliz ekinlari yetishtirilgan.

Tarixchi olimlarnig Ashtarxoniylar davri haqidagi ma’lumotlariga ko‘ra, 1642-yil mart–aprel oylarida Yalangto‘shbiy otaliq tomonidan xon buyrug‘i asosida chiqarilgan farmoyishda Mullo Xoja-arbobga suyurg‘ol sifatida berilgan 3,5 o‘lchov milk suv uning o‘g‘li Xoja Boboga meros tariqasida o‘tgani tasdiqlangan. Hujjatda mazkur suv egaligiga nisbatan malujahat va ixrojat soliqlari bo‘yicha da’vo

qilinmasligi belgilangan. Ushbu hujjat Buxoro xonligida suvdan foydalanish huquqi maxsus rasmiy hujjatlar orqali mustahkamlanganini ko‘rsatadi [5].

Yana shuni qayd etish lozimki, Ashtarxoniylar davrida yirik irrigatsiya inshootlari qurilishiga e’tibor qaratilgan, ayrim kanallar qazilgan: Masalan, 1614–1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho‘liga, 1633–1634-yillarda Qo‘shqo‘rg‘onda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq umumiy tendensiya shuni ko‘rsatadiki, suv inshootlari qurilishi va ta’mirlash ishlari avvalgi davrlarga nisbatan sustlashgan. Mavjud yozma manbalar tahlili XVII–XVIII asrlarda Buxoro xonligida yangi irrigatsiya inshootlari qurilishi haqidagi ma’lumotlar cheklanganini, asosan, mavjud kanallar va ariqlarni ta’mirlash ishlari amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Bu holat Ashtarxoniylar davrida irrigatsiya tizimini rivojlantirish ishlari avvalgi davrlarga nisbatan sustlashganidan dalolat beradi.

Bu holat “Tarixi Rahimiy” kitobida qayd etilishicha, XVII–XVIII asrlarda Buxoro xonligida yangi irrigatsiya inshootlari qurilishi haqidagi ma’lumotlar cheklanganini, asosan, mavjud kanallar va ariqlarni ta’mirlash ishlari amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Bu holat Ashtarxoniylar davrida irrigatsiya tizimini rivojlantirish ishlari avvalgi davrlarga nisbatan sustlashganidan dalolat beradi [6].

Suvdan foydalanish va yer-suv munosabatlariga ko‘chmanchi o‘zbek qabilalarining joylashuvi hamda xo‘jalik faoliyati ham muayyan ta’sir ko‘rsatgan. Shayboniylar davrida shakllanib, Ashtarxoniylar davrida saqlanib qolgan yurt tizimiga ko‘ra, ayrim hududlar muayyan qabilalarga doimiy yashash va foydalanish joyi sifatida biriktirilgan. Xususan, Qunduz qatag‘on, Termiz qo‘ng‘irot, Lag‘mon esa alchin qabilasining yurti hisoblangan [7]. Tarixiy manbalarda ko‘chmanchi chorvadorlarning Amudaryo tomonidagi yaylovlardan foydalanishi o‘troq aholining yer egaligi va suvdan foydalanish huquqlariga ta’sir ko‘rsatgani, ayrim hollarda esa dehqonlar va chorvadorlar manfaatlari o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelgani qayd etiladi.

Masalan, Ashtarxoniylar davridagi yer-suv munosabatlarini baholashda yer egaligining an’anaviy shakllari va ularning huquqiy tartibga solinishini hisobga olingan. Bu davrda davlat yerlari, xususiy mulk va vaqf yerlariga oid munosabatlar saqlanib qolgan. Yerga egalik qilish, uni oldi-sotdi qilish, hadya etish va vaqfga o‘tkazish kabi jarayonlar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xon yorliqlari, hukmnomalar, oldi-sotdi vasikalari va vaqf hujjatlari ushbu munosabatlarning huquqiy asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. XVII–XIX asrlarga oid bunday hujjatlarning salmoqli qismi O.D. Chexovich tomonidan nashrga tayyorlangan “Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixiga oid hujjatlar” to‘plamida jamlangan.

A.A. Semyonov keltirgan ma’lumotlarida, Ashtarxoniylar davrida yer-soliq munosabatlarining murakkablashuvi va soliq yukining ortishi dehqonlar iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Aholidan xiroj, tanobona, avorizot kabi soliqlar bilan bir qatorda turli majburiy mehnat majburiyatlari ham undirilgan. Jumladan, hashar, bigor va mardikorlik kabi majburiyatlar dehqonlarning xo‘jalik faoliyatiga qo‘shimcha yuk bo‘lgan. Ayrim yirik yer egalari va diniy tabaqa vakillarining soliq imtiyozlariga ega bo‘lishi esa markaziy hokimiyatning yer daromadlarini qisqartirgan [8].

Davlat yerlarining suyurg‘ol, tanho va boshqa shakllarda alohida shaxslar tasarrufiga o‘tishi, ayrim hollarda esa soliqdan ozod qilingan xususiy mulklarga aylanishi xazina daromadlari tarkibiga ta’sir ko‘rsatgan. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida soliq yukining ortishi, moliyaviy qiyinchiliklar va yer egaligi munosabatlaridagi o‘zgarishlar Buxoro xonligining iqtisodiy zaiflashuvini kuchaytirgan omillardan biri bo‘ldi [9].

A. Madraimov va G.Fuzailovaning kitobida qayd etilishicha, Ashtarxoniylar davrida xon davlat tasarrufidagi yerlar va aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalar, yirik diniy ulamolar hamda sayyidlarga suyurg‘ol sifatida, harbiy qismlar boshliqlari va saroy amaldorlariga esa tanho shaklida in’om etgan. Suyurg‘ol egalari ayrim hollarda davlat soliqlaridan ozod qilingan bo‘lib, bu imtiyoz ularning yer-mulkdan oladigan daromadlarini oshirgan. Tanho shaklida berilgan yerlar esa tanhodorning to‘liq xususiy mulki hisoblanmagan. Unga mazkur hududlarda yashovchi dehqonlardan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni undirish huquqi berilgan. Bundan tashqari, xon tomonidan alohida xizmatlari uchun ayrim shaxslarga davlat soliqlaridan ozod etilgan yer-mulklar ham in’om qilingan. Bunday imtiyozli mulklar “mulki xurri xolis” deb atalgan [10].

XVII asr – XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida irrigatsiya tizimining rivojlanishi avvalgi davrlarga nisbatan sustlashdi. Mavjud manbalarda yangi sug‘orish inshootlari qurilishi haqidagi ma’lumotlar kam uchraydi, asosan eski kanal va ariqlarni ta’mirlash hamda tiklash ishlari amalga oshirilgani qayd etiladi. Siyosiy beqarorlik va o‘zaro urushlar natijasida ayrim irrigatsiya inshootlarining vayron bo‘lishi sug‘oriladigan yerlar maydonining qisqarishiga olib kelgan. Biroq bu jarayon bir tekis kechmagan: ayrim yirik yer egalari, xususan, Jo‘ybor shayxlari yangi suv inshootlarini barpo etish orqali tashlandiq yerlarni qayta o‘zlashtirishga ham erishgan [11]. XVIII asrda kuchaygan siyosiy va iqtisodiy beqarorlik esa qishloq xo‘jaligi taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ashtarxoniylar davridagi yer-suv munosabatlari avvalgi an’analarning davomi bo‘lsa-da, soliq tizimining og‘irlashuvi, yer mulklarining notekis taqsimlanishi va irrigatsiyaga e’tiborning susayishi bu sohada jiddiy muammolarni

keltirib chiqargan. Bu omillar xonlikning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, sulolaning zaiflashuviga zamin yaratgan [12].

Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligidagi yer-suv munosabatlari avvalgi davrlarda shakllangan an’analar asosida davom etgan bo‘lsada, yer egaligi shakllarining o‘zgarishi, davlat yerlarining ayrim harbiy-ma’muriy va diniy tabaqa vakillari tasarrufiga o‘tishi, soliq yukining ortishi hamda irrigatsiya tizimini saqlash bilan bog‘liq muammolar agrar sohadagi murakkabliklarni kuchaytirdi. Natijada davlat yerlaridan xazinaga kelib tushadigan daromadlarning qisqarishi, dehqonlar zimmasidagi iqtisodiy majburiyatlarning ortishi va ayrim hududlarda sug‘orish imkoniyatlarining cheklanishi xonlikning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur jarayonlar Ashtarxoniylar davrida markaziy hokimiyatning zaiflashuviga ta’sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari: monografiya. Toshkent: Bayoz, 2021 –136 bet. ISBN 978-9943-6372-1-4.

2. Саидов А. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII – первой половине XVIII вв. Докторская диссертация по историческим наукам. Душанбе, 2007 –С. 58-59.

3. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. – Ташкент, 1963.

4. Материалы по истории Ура-Тюбе: сборник актов XVII–XIX вв./Перевод А.Мухтарова. –М.: Издательство восточной литературы, 1963. –С. 16.

5. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история (Тарих-и Муким-хани) / Перевод с персидского А. А. Семенова. –Т.: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1956. – С. 16–17.

6. Шараф ад-дин 'Алам ибн Нураддин. Та'рихи Ракими. Қўлёзма, ЎзР ФА Шарқшунослик институти, инв. № 7711, в. 249а–б.

7. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве. Вып. I. Акты феодальной собственности на землю XVII–XIX вв. / Подбор документов, перевод, введение и примечания О. Д. Чехович; под ред. А. К. Арендса. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1954. –268 с.

8. Семенов А. А. Очерк поземельно-податного и налогового устройства Бухарского ханства. –Т.: Средне-Азиатский государственный университет, 1929. –54 с.

9. Саидов А. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII – первой половине XVIII вв.: автореф.дисс. ... д-ра ист. наук. – Душанбе, 2007. – С. 21–22.

10. Madraimov A.A., Fuzailova G.S. Tarixiy manbashunoslik.– T.: Fan, 2006. 53-b.

11. Barotov S. Ashtarkhanids Reign During Land Ownership Relations. International Journal of History and Political Sciences, 2025, Vol. 5, Issue 5, pp. 35–38. DOI: 10.37547/ijhps/Volume05Issue05-09.

12. Agzamova G.A. So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 52 b.